

**MUSIQASHUNOSLIK , ETNOMUSIQASHUNOSLIKNING  
DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI.  
АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ МУЗЫКОЗНАНИЯ,  
ЭТНОМУЗЫКОЛОГИЯ.  
CURRENT PROMLEMS AND SOLUTIONS OF MUSICOLOGY,  
ETHNOMUSICOLOGY.**

**Shodiyeva Shahinabonu Shoirjon Qizi**

*Farg'ona Davlat Universiteti Pedagogika, Psixologiya va San'atshunoslik fakulteti  
„ Musiqa ta'limi va madaniyat “ kafedrası Musiqa ta'limi , 1- bosqich talabasi*

[Shaxinashodiyeva617@gmail.com](mailto:Shaxinashodiyeva617@gmail.com)

+998932014428

**Muyassar Achildiyeva Adiljanovna**

*ILmiy rahbar: +998913970088*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada – musiqiy ta'lim yo'nlishlari, ta'lim sohasidagi o'zgarish va innovatsiyalar eng asosiysi etnomusiqashunoslik (xalqaro musiqashunoslik) dagi dolzarb mavzularning yorqinlashtirilishi ko'zda tutilgan.

**Аннотация:** В данной статье призваны осветить изменение и инновации в сфере музыкального образования ,главным образом этномузыкалогии ( международное музыкальное знание ).

**Abstract:** This article aims to highlight changes and innovations in the field of music education , primarily ethnomusicology ( international musicology ).

Ushbu maqolaning mazmunida musiqiy ta'limning alohida ahamiyati va musiqiy ta'limning rivojini yanada uyg'unlashtirish . Musiqiy ta'lim bu nafaqat insonning musiqiy tafakkurini balki, inson ongini , hayoliy tasvirlash va inson ichidagi barcha fikr – u , tuyg'ularni tasvirlashni o'rgatuvchi fan deb ham atash mumkin. Chunki , musiqa insonni doimiy hamrohi desa ham mubilag'a bo'lmaydi. Musiqiy ta'lim esa, quyidagi qobiliyatga ega , musiqiy iqtidorga ega insonlarni musiqiy yo'l uchun yetaklovchi ravshan poyandoz deyilsa ham to'g'ri yo'l tutiladi.

Bu metodika ya'ni musiqiy ta'lim to'g'rirog'i musiqa o'qitish , pedagogika fani sifatida qabul qilingan va bu faoliyat hozirga qadar har bir yerda o'z ahamiyati va o'rniga ega . Tajribada sinalgan ishlarni nazariy yo'l bilan umumlashtirish . bu metodika asosan , pedagogika , psixologiya , estetika va san'atshunoslikning tadqiqot natijalariga to'la – to'kis asoslanadi. Amaliy tarzdagi musiqa o'qitish qonun – qoidalarini nazariy tarzda ta'riflab yetkazuchi fan . Musiqiy ta'limni rivoji uchun harakat qilinayotgan bir vaqtda biz uchun yaratilayotgan imkoniyatlar , shart – sharoitlar , bir – biridan yuqori darajadagi innovatsion texnologiyalar ham bizning ishtiyohimizning osishiga sabab bo'la oladi. Chunki har bir inson fikr – u , hayolini jalb qilib mukammal bir darajaga erishishi ham

oson pog'onlardan iborat emas albatta. Ma'lum bir qo'llab – quvvatlashlar yordamida muvaffaqiyatlar yo'li kengayadi.

Bu musiqiy rivojni yo'lgan to hozirgi vaqtga qadar hayotimizdagi muhirlardan biriga aylanishiga o'z hissalarini qo'shgan insonlarya'ni o'rta asr mutaffakirlarin ular :

- 1) Abu Nasr Farobiy
- 2) Abu Abdullo Rudakiy
- 3) Xorazmiy
- 4) Abu Ali Ibn Sino
- 5) Abu Rayhon Beruniy
- 6) Abdurahmon Jomiy
- 7) Alisher Navoiy

va boshqalar ijodiga nazar solsak o'z ijodlari davrida insonlarga musiqiy darajani mukammal ekanligini yetkazib ta'sirlantira olgan san'atning eng yuqori chuqqisi tomon bo'lgan kenglik bilan mashhul bo'lishar va doimo musiqa san'atining amaliy va nazariy qismlarini to'g'ri buyuk asarlar bilan yorqinlashtirish haqida ilmiy ishlar olib borishgan.<sup>44</sup> Albatta , hozirgi vaqtgacha ushbu asarlar nafaqat bizning musiqashunosligimiz va jahon musiqashunoslari faoliyatida ham qo'llanilmoqda. Jumladan , O'rta Osiyoda yashagan olim Al – Farobiyning musiqaga bag'ishlagan „ Musiqaga bag'ishlangan katta kitob “ asari cholg'u madaniyatimizning o'qilmagan saxifalarini varoqlab oydinlashtirilishiga olib keldi.<sup>45</sup> Bu olimlarni musiqiy ildizimiz o'sib o'z cho'qqisiga otishi sababchi yo'l yorituvchi yo'l boshchilarimiz deb faxr ila ayta olamiz. Hozirda yurtimizda musiqashunoslikning o'z o'rni qadrlanayotganligi ham insonga hayot baxsh etadi.

Musiqashunoslik fanining dolzarb mavzularidan biri bu – hozirgi vaqtda musiqiy ta'limga yaratilayotgan innovatsiyalardan to'g'ri foydalanishni anglash va musiqashunoslikning har bir chuqqilarida rivojlanishni shakllantirish. Musiqashunosligimizning hozirgi yorqinligini ham „etnomusiqashunoslik “ yo'li bilan tanitishni yanada ko'roq kelishuv va hamkorlik bilan yo'lga qo'yish.<sup>46</sup>

### **Etnomusiqashunoslik**

19-asr oxirida rasmiy shakllangan paytdan boshlab ham terminologiya, ham mafkura jihatidan rivojlandi.

1980-yillarga kelib, ishtirokchi-kuzatuvchi metodologiyasi, hech bo'lmaganda, Shimoliy Amerikadagi etnomusiqashunoslik an'analarida normaga aylandi.

Vaqtivaqti bilan mashhur ommaviy axborot vositalarida etnomusiqashunoslikka havola qilingan. Nettl tushuntirganidek, etnomusiqashunoslik ko'p jihatdan ma'lumotlar to'plash va kuchli shaxsiy munosabatlarni rivojlantirishga tayanadigan soha bo'lib, uni ko'pincha statistik ma'lumotlar bilan aniqlab bo'lmaydi. Yuqoridagi bahs-munozaralar va

<sup>44</sup> Sharipova G Musiqa o'qitish metodikasi. Maruzalar.T., TDPU ,2006

<sup>45</sup> „ Musiqaga bag'ishlangan katta kitob “ Al-Farobiy @uz.m.wikipedia.org

<sup>46</sup> O'zbek Milliy Ensiklopediyasi (2000-2005).

shunga o'xshash davom etayotgan bahs-munozaralar natijasida etnomusiqashunoslik hali biron bir standart metod yoki tahlil usullarini yaratmagan. Ushbu sohadagi yangi mulohazalar natijasida ayollarning etnomusiqashunoslikka qo'shgan hissasini yanada yaxshiroq hujjatlashtirish va saqlashga qaratilgan sa'y-harakatlar kuchaydi. Etnomusiqashunoslikning kelib chiqishi 18—19-asrlarga to'g'ri kelgan bo'lsa-da, u 1950-yillar atrofida golland olimi Yaap Kunst tomonidan "etnomuzikologiya" nomi bilan rasman kiritilgan. Bundan tashqari, postkolonial fikr etnomusiqiy adabiyotning diqqat markazida bo'lib qolgan.<sup>47</sup> Musiqiy tanqid va musiqiy jurnalistika kabi asosiy qamda fanlarga aloqador (musiqiy) akustika.<sup>48</sup> Musiqiy madamiyatimiz va bizning musiqiy matodikamiz nima uchun etnomusiqashunoslik (musiqiy tanqid), yo'li bilan ham tanilmaydi? Musiqashunosligimiz tarixida etnomusiqashunoslik yo'li bilan mutafakkirlarimiz asarlari tanqidi juda katta ahamiyat kasb etgan. Bu asarlardan: „Avisseño“ nomi bilan butun dunyoga tanilgan Abu Ali Ibn Sino shifokor bo'lib qolmasdan, taniqli musiqashunos ham edi. Hatto g'ijjak yaratilishi tasvirlangan rivoyat ham Abu Ali Ibn Sinoga baxsh qilinganligi buning yana bir isboti. „go'yo bu cholg'uni yaratgan va ijro etgan inson xakim emas“ deb yuritilgan.<sup>49</sup> „Kito bash – Shifo“ kitobida aytilganidek musiqa bu insonni hayoti faoliyatidagi muammolar va estetik hayoti uchun foydali deb ta'kidlaganlar buyuk musiqashunos Abu Ali Ibn Sino. Bizning etnomusiqashunoslik yo'li bilan chet ellerda foydalaniladigan asarlarimizdan:

- 1) „Munojot“
- 2) „Soyai“
- 3) „Chorgoh“
- 4) „Ajam taronalari“
- 5) „Cho'li iroq“
- 6) „Syrnay navosi“
- 7) „Qo'shchinor“
- 8) „Giryā“
- 9) „Tanovor“

shu kabi asarlarimiz hozirgi kunga qadar chet elda o'rganib qadrlaniladi. Shunkabi asarlarining rivoji uchun ham doimo harakatda bo'lishimiz zarurdir.<sup>50</sup>

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish kerakki ma'naviy tarbiyani yo'lga qo'yishda quyidagi talablarni hisobga olish zarur:

- 1) Sharq allomalarining musiqa va musiqiy tarbiyasiga bag'ishlangan asarlardan keng foydalanish;

<sup>47</sup> [Uz.opentran.net/ozbek-xitoy-tarjima/etnomusiqashunoslik.html](http://Uz.opentran.net/ozbek-xitoy-tarjima/etnomusiqashunoslik.html)

<sup>48</sup> O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

<sup>49</sup> [www.oriens.uz](http://www.oriens.uz) Abu Ali Ibn Sino „Avisenna“

<sup>50</sup> Ismailov Tohir „CHARACTERISTICS OF KHOREZM DOSTON ART“ „Экономика и социум“ N3(82) 2021 [WWW.IUPR.RU](http://WWW.IUPR.RU)

2) Ijodkor keksa avlodlarimizdan foydalanib qolish, ularning ishini davom ettiruvchilarni tayyorlash kerak;

Shu o'rinda musiqashunos olim Fitratning musiqa madaniyati va uning ma'naviyatga ta'siri haqida aytilgan quyidagi gaplarini aytish joizdir :

„...o'z musiqamiz, ham ovro'pa musiqani ham yaxshi bilib olg'an .... talablarimiz yetishkuncha, ovro'pa musiqa ohang olimlarning yordami bilan kuylarimizni notaga oldirishda ovro'pa musiqasining ohang usullarig'a ergashtirmayliq. ovro'pa ohang usullaridan ko'z yumub kuylarimizning o'z ohangida qolishig'a tirishayliq. Ovro'pa ohang usullariga ergashtirib oling'an kuylarning etnografik nuqtasidan ahamiyatini yo'qotqanimiz kabi ularning o'zbekligini ham yo'qotgan bo'lamiz”<sup>51</sup>

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1) Sharipova G Musiqa o'qitish metodikasi. Maruzalar.T., TDPU ,2006
- 2) „ Musiqaga bag'ishlangan katta kitob “ Al-Farobiy @uz.m.wikipedia.org
- 3) O'zbek Milliy Ensiklopediyasi (2000-2005).
- 4) [Uz.opentran.net/uzbek-xitoy-tarjima/etnomusiqashunoslik.html](http://Uz.opentran.net/uzbek-xitoy-tarjima/etnomusiqashunoslik.html)
- 5) O'zME. Birinchi jild.Toshkent , 2000-yil
- 6) [www.oriens.uz](http://www.oriens.uz) Abu Ali Ibn Sino „Avisenna”
- 7) Ismailov Tohir “CHARACTERISTICS OF KHOREZM DOSTON ART” „ Экономика и социум “ N3(82) 2021 [WWW.IUPR.RU](http://WWW.IUPR.RU)
- 8) Sharipova G Musiqa va uni o'qitish metodikasi(metodik qo'llanma ).Toshkent-2006. [www.oriens.uz](http://www.oriens.uz)

<sup>51</sup> Sharipova G Musiqa va uni o'qitish metodikasi(metodik qo'llanma ).Toshkent-2006